

PIYODA VA HAYDOVCHILAR O'RTASIDA KELIB CHIQUADIGAN YO'L  
TRANSPORT HODISALARINI RANGNING AHAMIYATI

Abruyev Shaxbos Isroil o'g'li  
*Toshkent davlat transport universiteti*  
Abdusamatov Erkinjon Xalim o'g'li  
*Toshkent davlat transport universiteti*  
Tursunov Nodir Hamrayevich  
*Toshkent davlat transport universiteti*

**Anotatsiya:** *Ushbu maqolada piyoda va haydovchilar o'rtasida kelib chiqadigan yo'l transport hodisalarini piyodalar kiymining rangiga bog'liqlig tahlili keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *piyoda, haydovchi, yo'l transport hodisalari.*

**Annotation:** *This article presents an analysis of traffic incidents between pedestrians and drivers depending on the color of pedestrians' clothing.*

**Key words:** *pedestrian, driver, road traffic accidents.*


Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi aholisining jadal ravishda o'sishi hamda yo'llarda transport vositalarining ko'payganligi, o'z navbatida, o'ziga xos masalalarning yechimini talab etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-190 sonli qarori Mamlakatimizda so'nggi yillarda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish sohasida keng qamrovli tashkiliy-amaliy ishlar rejalashtirilgan.

Yo'l harakati ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash bo'yicha bir qator ilmiy uslublar mavjud. Avtomobil yo'llarida harakat xavfsizligini tashkil etish bugungi kundagi muhim muammolardan biriga aylanib bormoqda. Respublikamizda avtomobil sanoatini rivojlanishi, o'z-o'zidan shahar ko'chalarida transport vositalarining soni ortib borishiga, harakat jadalligini o'sishiga va tirbandlikni yuzaga keltirmoqda. Yo'l harakatini asosiy tavsiflaridan biri bo'lgan, hamda "A-H-Y-M" (Avtomobil-Haydovchi-Yo'lovchi-Muhit) tizimida harakat xavfsizligini ta'minlashda asosiy faktorlardan hisoblanadigan transport vositalarining harakat miqdori va tarkibini o'zgarishini tadqiq qilish orqali harakat xavfsizligini ta'minlashga erishi mumkin.

Har yili yo'llarimizda 10 minggacha yo'l transport hodisasi sodir bo'lmoqda. Buning oqibatida o'tgan yili 2,5 mingga yaqin insonlar bevaqt hayotdan ko'z yummoqda, 9 mingdan ortig'i turli darajadagi tan jarohati oldi.

Yo'l transport hodisalarining 20 % tezlikka rioya qilmaslik, 25 % yo'llardagi kamchiliklar, 47 % piyodalar ishtirokida, 10 % haydovchilarning tajribasizligi, 8 % qarama-qarshi yo'nalishga chiqib ketish, 6 % veloyo'lak bo'lmaganligi oqibatida sodir etilgan.

Bundan ko'rinib turibdiki yo'l-transport hodisalarining salmoqli qismi piyodalar ishtirokida sodir etilayotganini ko'rsatmoqda. Oqibatda o'tgan yili 965 nafar piyodalar, shundan 263 nafar bolalar bilan sodir bo'lgan.



*1-rasm. 2021-2022-yillarda O‘zbekiston Respublikasida 8 oyda sodir etilgan yo‘l transport hodisalarini turlari bo‘yicha tahlili*


2021-2022-yillarda O‘zbekiston Respublikasida 8 oyda sodir etilgan yo‘l transport hodisalarini turlari bo‘yicha tahlil ko‘rishimiz mumkin, ulardan eng ko‘p piyodani bosib urib ketish 58%, to‘qnashuv 33% ni tashkil qilmoqda.

Yana shuni aytishimiz kerakki piyodalar o‘tish yo‘laklarida yani hududida piyodalarning kiyimiga bog‘liq ravishda kechki paytda ko‘rinish masofasi tahlil qilingan.


*1-jadval*

*Piyodalarning kiyimiga qarab kechki paytda ko‘rish masofasi*

T/r	Kiyimning rangi	To‘xtash masofasi	Harakat tezligi
1	Qora rangdagi	18	60 km/soat
2	Qizil rangdagi	24	60 km/soat
3	Sariq rangdagi	37	60 km/soat
4	Oq rangdagi	55	60 km/soat
5	Nur qaytaruvchi element bo‘lgan	130	60 km/soat
6	Nur qaytaruvchi jilet kiygan	150	60 km/soat



2-rasm. Piyodalar o'tish joyidan harakatlenganda piyodalarning kiygan kiyimlarining avtomobil harakat tezligi 60 km/soat bo'lganda ko'rinish masofasi.



3-rasm. Piyodalar o'tish joyidan harakatlenganda piyodalarning kiygan kiyimlarining avtomobil harakat tezligi 60 km/soat bo'lganda ko'rinish masofasi (%).

Xulosa qilib aytganda piyodalar bilan sodir bo'ladigan yo'l transport hodisalari faqatgina transport vositasining tezligiga emas balki piyodalar kiymining rangiga ham bog'liq. Mavjud dalillar shuni ko'rsatadiki, tezlikni boshqarishning asosiy echimlari tezlikni cheklash qonunlarini o'rnatish va qo'llash, tirbandlikni tinchlantiradigan yo'llarni qurish yoki o'zgartirish va avtomobil ishlab chiqaruvchilardan haydovchilarga tezlikni cheklashda yordam berish uchun yangi texnologiyalarni o'rnatishni talab qilishdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-190 sonli qarori
18. Кременец Ю.А., Печерский М.П., Афанасьев М.Б. “Технические средства ОДД”: учебник для вузов. – м.: ИКЦ «Академкнига», 2005.
19. Қ.Х.Азизов: “Ҳаракат хавфсизлигини ташкил этиш асослари”. Тошкент 2009.- 264 б.
20. <https://cyberleninka.ru/article/n/haydovchilarni-tayyorlashda-raqamli-o-zbekiston-2030-dasturini-joriy-etish>
21. <http://innosci.org/index.php/IJSES/article/view/151>
22. <http://innosci.org/index.php/IJSES/article/download/149/125>
23. <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/1279>
24. <http://sciencebox.uz/index.php/jars/article/view/2785>
25. <https://cyberleninka.ru/article/n/y-llarda-transport-o-iniini-bosh-arish-va-y-l-transport-odisalarini-kamaytirilishiga-aratilgan-choralar>
26. <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/108>